



TARJIMA JARAYONIDA GRAMMATIK MUAMMOLAR

Xaitova Nilufar Rashid qizi

Termiz Davlat Universititi Xorijiy filologiya fakulteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 205-guruh talabasi

Annotation: *This article covers Grammar problems and Grammar parts in the translation process. In this article, we will consider the sections of Grammar and its forms based on the scientific works of several scientists. In this article, we will consider the categories of grammar and parts of syntax.*

Key words: *grammatical letter, grammatical parts of linguistics, categories of morphology, syntax, grammatical form*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются грамматические проблемы и грамматические части в процессе перевода. В этой статье мы рассмотрим разделы Грамматики и ее формы на основе научных трудов нескольких ученых. В этой статье мы рассмотрим категории грамматики и части синтаксиса.*

Ключевые слова: *грамматическое письмо, грамматические части языкознания, категории морфологии, синтаксис, грамматическая форма.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola tarjima jaroyinida Grammatik muammolarni va Grammatik qismlarni o'z ichiga oladi. Bu maqolada Grammatikaning bo'limlarini va uning shakllarini bir qancha olimlarning ilmiy ishlariga tayangan holda ko'rib chiqamiz. Ushbu maqolada grammatikaning kategoriyalarini va sintaksis qismlarini ko'rib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *grammatik harf, tilshunoslikning grammatik qismlari, kategoriyalari morfologiya, sintaksis, grammatik shakl*

MUHOKAMA

Gramma soʻzidan — harf, yozish) — tilshunoslikning tilning grammatik tuzilishini, yaʼni soʻzlarning shaklga ega boʻlish qonuniyatlarini, shuningdek, soʻz birikmalari va gaplarni tuzish qonuniyatlarini oʻrganadigan boʻlimi. Grammatika 2 qismdan — morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada soʻzning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalar, soʻz shakllari, sintaksisda esa soʻz shakllarining gap tarkibida oʻzaro birikish yoʻllari, fan va uning kategoriyalari, gapning tuzilish turlari bayon qilinadi. Demak, Grammatikada soʻz shakli, grammatik maʼno, grammatik shakl, grammatik kategoriya, fan va uning kategoriyalari haqidagi tushunchalar markaziy oʻrinni egallaydi. Tilda oʻzining doimiy ifodalovchisiga ega boʻlgan, soʻz shakli va gapga xos umumlashgan maʼno grammatik maʼno sanaladi. Maʼlum grammatik maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, maʼlum grammatik maʼnoning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani tashkil etgan qismlarning bir tomonini — yaʼni shakliy tomonini ifodalaydi. Shu bois, grammatik kategoriyalar grammatik shakllarning munosabatidan yuzaga kelgan



umumiylik, deyilsa mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Chunki grammatik kategoriya tarkibiga kirgan har bir qism ham, o'z navbatida, shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Shu sababli ayrim mualliflar grammatik kategoriya tarkibiy qismlari uchun grammema atamasidan foydalanmoqdalar.

Grammatik birliklarni grammatik kategoriyalarga birlashtirishda shu kategoriyaga xos umumlashgan ma'no asos bo'lib xizmat qiladi. Kategoriyaga xos bu umumlashgan ma'no mazkur kategoriyaga birlashgan har bir grammemada takrorlanadi. Shu bilan birgalikda kategoriya doirasidagi har bir grammemaning boshqasidan farq qiladigan ma'nosi ham mavjud. Ana shu ma'nolar kategoriya unsurlarining o'zaro zidlanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, kategoriya ma'nosi bilan kategoriya tarkibidagi grammema ma'nosi o'rtasida tur-jins munosabati mavjud.

Grammatika ma'lum til qurilishini qanday o'rganishiga ko'ra, amaliy Grammatika va nazariy Grammatikaga bo'linadi. Amaliy Grammatika muayyan bir tilda gapning to'g'ri qurilishi uchun zarur bo'lgan grammatik qoidalarni tavsiflaydi. U o'z navbatida, 2 turga bo'linadi: tavsifiy hamda me'yoriy grammatika Tavsifiy Grammatika til grammatik qurilishini tavsiflash, bayon qilish bilan cheklanadi. Me'yoriy Grammatika esa til faktlarining til me'yoriga munosabatini, ma'lum bir lisoniy birlik yoki qurilmaning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanganini o'rganadi. Amaliy Grammatikadan farqli ravishda, nazariy Grammatika til qurilishini tavsiflash bilan birga, til qurilishidagi birliklarning o'zaro munosabatini o'rganadi. Bu orqali har bir lingvistik birlikning til sistemasidagi o'rni, qiymati belgilanadi. Nazariy Grammatikada til grammatik qurilishining sistemaviy xususiyati ochiladi. Bevosita kuzatishda berilgan hodisalar zamirida yashiringan mohiyat belgilanadi. Shuning uchun ham nazariy Grammatika umumiylik — xususiylik, mohiyat — hodisa, imkoniyat — voqelik dialektikasini o'zida namoyon etuvchi til va nutq zidlanishiga asoslanadi.

Grammatik birliklar tadqiqotchi yordamida qaysi tomondan o'rganilishiga ko'ra, Grammatika faol, nofaol turlarga bo'linadi. Shakldan ma'noga qarab tadqiq qilish usuli — semasiologiya usulidir. Bu usulda ma'lum grammatik shakl qanday ma'no ifodalashi haqida gap boradi. Yuqoridagi usulda grammatik birliklarni o'rganish nofaol Grammatika sanaladi. Aksincha, mazmundan shaklga tamoyili bilan ish ko'ruvchi Grammatika faol Grammatika hisoblanadi. Faol Grammatikada u yoki bu mazmun qanday yo'llar bilan moddiylashishi mumkinligi aniqlanadi.

Xuddi shu yo'nalish bilan bog'liq ravishda Grammatika mazmuniy (mental), shakliy (formal) va vazifaviy (funktional) Grammatikalarga bo'linadi. Mazmuniy Grammatika mazmundan shaklga tamoyiliga amal qiladi. Obyektiv borliqning ongda aks etishi va ongda aks etgan obyektiv olam unsurlari umumlashgan obrazlarning tilda qanday o'z ifodasini topishini mazmuniy Grammatika o'rganadi. Shakliy Grammatika esa semasiologik tamoyil, shakldan mazmunga tamoyili asosida ish ko'radi. Grammatik kategoriyalarni tasnif qilishda shakl ustuvorlik qiladi. Bu yo'nalishda grammatik shakllarni o'rganish jarayonida nolisoniy (ekstralingvistik) omillarning e'tiborga olinishi shart emasligi ta'kidlanadi. Funktsional Grammatikada asosiy e'tibor grammatik shakl va grammatik kategoriyalarning



vazifasiga qaratiladi. Bunday Grammatikalarda lisoniy birlikning 3 tomoni: mazmun, shakl, vazifa (funksiya) dialektik birlikda olinadi.

Grammatika muammolari dastlab qadimda Hindistonda (tilshunos Panining Grammatikaga oid traktatida, miloddan avvalgi 5—4-asrlarda), keyinroq Yunonistonda (Aristotel, miloddan avvalgi 4-asr, yunon tilshunosi Apollon Diskol, miloddan avvalgi 2-asr va boshqalarning asarlarida) ishlangan. Yunon grammatik an'analari lotin tilini o'rganish jarayonida rivojlanib borgan.

O'zbekistonda Grammatikani o'rganish tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi. Bu jarayon o'rta asrlardagi lug'atshunoslik taraqqiyotida ham o'z aksini topgan (Toli Imoniy Hiraviyning "Badoye ul-lug'at" asari, (15-asr), "Abushqa" nomli chig'atoycha-turkcha lug'at (16-asr) va boshqalar).

Hozirgi o'zbek tili Grammatikasi Yevropa Grammatikasi asosida yaratilgan. Bu jarayon 19-asrning 2-yarmidan boshlangan. Dastlab rus turkshunosi M. A. Terentyev "Turk, fors, qirg'iz (qozoq) va o'zbek tillarining grammatikasi" (1875) kitobini yozib, SanktPeterburgda nashr ettirgan. Bu kitob mahalliy tilni o'rganmoqchi bo'lgan rusiyzabon kishilarga mo'ljallangan edi. O'zbek tilining izchil ilmiy Grammatikasini yaratishni 20-asrning 20-yillarida Fitrat, G'ozii Yunus, Shorasul Zunnun va boshqalar boshlab berdilar. Keyinchalik bu sohada A.G'ulomov, G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, Sh.Shoabdurahmonov, S.Usmonov, B.O'rinboyev va boshqa tilshunos olimlar katta ishlarni amalga oshirdilar.

Grammatik kategoriya - 1) maxsus ko'rsatkichlar yordamida so'zlarning o'zgarishi, birikish va gap hosil qilish qoidalariga asoslangan umumgrammatik tushuncha. G. k. grammatikaning qaysi sohasiga oidligiga ko'ra morfologik va sintaktik kategoriyaga bo'linadi. Sintaktik kategoriyalar morfologik kategoriyaga teng bo'lmaydi. Mas, bizning oila — to'q oila. Bu jumlada morfologik jihatdan to'rt so'z, uch xil so'z turkumi bor (olmosh, ot va sifat, ot), sintaktik jihatdan esa faqat ikki bo'lak — ega va kesim mavjud. Fe'lda 3 ta grammatik kategoriya bor. Mayl,zamon,shaxs-son kategoriyasi

Ld.:G'ulomov A. G'., Asqarova M. A., Hozirgi zamon o'zbek tili, T., 1961.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki ushbu maqolada ko'plab grammatik muommolarni kelib chiqishi oldini olish,va uni yanada takomillashtirishga doir bir qancha qator ishlar olib borilmoqda.

Quyida keltirilgan olimlarning asarlari bilan ham tanishib chiqishimiz mumkin.

Bundan tashqari bu maqolada grammatikaning kategoriyalari va uning shakllarini ham ko'rib chiqishimiz mumkin.

Tilshunoslikning bir turi bu grammatika murakkabligi bilan boshqa sohalardan farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Grammatika>



2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Grammatik_kategoriya

3. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>